
XODIMNI DAM OLISH KUNI YOKI ISHLANMAYDIGAN BAYRAM KUNI ISHGA JALB ETISHNI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI



Xodimni dam olish kuni yoki ishlanmaydigan bayram kuni ishga jalb etishni rasmiylashtirish tartibi

Yangi Mehnat kodeksining 212-moddasiga ko'ra:

Xodimlarni dam olish kuni yoki ishlanmaydigan bayram kuni ishga jalb etish ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Bunda:

xodimning dam olish kuni yoki ishlanmaydigan bayram kuni ishlashga roziligi xodim tomonidan tegishli ariza berish orqali;

xodim tomonidan ish beruvchining xodim dam olish kuni yoki ishlanmaydigan bayram kuni ishlashga rozi ekanligi to'g'risidagi buyrug'iga imzo qo'yish orqali olinishi mumkin.

Xodim dam olish kuni yoki ishlanmaydigan bayram kuni ishga o'z rozilgisiz jalb etilganda ish beruvchining buyrug'ida Mehnat kodeksining 210-moddasida nazarda tutilgan alohida hol ko'rsatilishi kerak.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-04-22 17:28:49